

THE EFFECT OF DIFFERENT FEEDING METHODS ON THE GROWTH AND DEVELOPMENT OF MELON VARIETIES

Kalantarov Sanat Kadamboyevich

Director: Scientific Research Institute of Vegetables,
Pulse Crops and Potatoes, Khorezm Experimental Station

Sadullayev Sanjarbek Madiyarovich

Head of Department 2: Urganch State University,
Department of Fruit and Vegetables

ANNOTATION

In this article, it was found that the number and weight of fruits per plant in the variants with 18 kg of hydrogel per hectare were higher than the control variant. Based on the obtained results, the varieties with high performance are indicated.

Keywords: Studying the effect of different feeding methods on the productivity of medium-ripe varieties of melon.

QOVUN NAVLARINI O'SISHI VA RIVOJLANISHIGA TURLI OZIQLANTIRISH USULLARINING TA'SIR.

Kalantarov Sanat Kadamboyevich

Direktor: Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti,
Xorazm tajriba stansiyasi.

Sadullayev Sanjarbek Madiyarovich

Kafedra mudiri²: Urganch davlat universiteti, Meva-sabzavotchilik kafedrası.

ANNATATSIYA

Mazkur maqolada: Gidrogelni gektariga 18 kg qo'llangan variantlarda ham barcha navlarda o'simlikdagi meva soni va vazni bo'yicha nazorat variantga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Olingan natijalarga asosan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan navlar ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zi: Turli oziqlantirish usullarini qovunning o'rtapishar navlari hosildorligiga ta'sirini o'rganish.

KIRISH

Ilk bor Xorazm viloyatida qovunni qurg'oqchilikka chidamliligini oshirishda mineral o'g'itlardan gektariga azot-220 kg, fosfor-150 kg va kaliy-60 kg fonda gidrogelning turli xil me'yorlari bo'yicha oziqlantirilgan variantlari taqqoslanib, sinab ko'rildi.

Tajribada 4 ta variant bo'lib, mineral o'g'itlarni N₂₂₀P₁₅₀K₆₀ fonga gidrogelni gektariga 6 kg, 12 kg va 18 kg qo'llash variantlariga taqqoslovchi sifatida o'g'itsiz, oddiy ekish nazorat qilib olindi. Qovun urug'lari yillar davomida 20-23 may sanasida qo'shqatorli lentasimon usulda $\frac{210+70}{2} \times 60$ sm ekish sxemasida ekildi. Tajriba 4 qaytariqli, maydoncha 2 qatorli, uning oziqlanish maydoni

11,2 m² Har bir maydoncha qo'shqator uzunligi 4 m, eni 2,8 m. va maydonchada 12 o'simlik joylashgan.

Dala tajribalarida qovunni urug'i nazorat variantda odatdagi usulda, ya'ni tuproqqa 3-5 sm chuqurlikka solib tuproq bilan ko'mildi.

Gidrogelni mineral o'g'itlar bilan qo'llash usuli esa urug'ni ekishdan oldin tuproqqa ishlov berish vaqtida, ya'ni urug' ekish bilan birga o'tkazildi. Bunda gidrogelni idishlarga solib, 1 gramiga 1 litr me'yorda toza suv quyildi va 2-3 soat davomida suvni shimib olgandan so'ngra Dala maydoniga olib borildi. Qovun urug'i ekiladigan har bir uyalarga tavsiya etilgan mineral o'g'itning me'yori va gidrogelni solib tuproqqa aralashtirildi, so'ng 1-2 sm tuproq solib urug'lar qo'yiladi va urug'lar 3-5 sm tuproq bilan ko'mildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, qovunni o'rtapishar navlari urug'lari ekilgandan so'ng fenologik kuzatuvlar o'tkazildi. Bunda urug'larni unib chiqishi (10 va 75 % ga), otalik va onalik gullarni gullashi hamda mevalarning pishib yetilishi aniqlandi.

1-jadval Qovunni o'rtapishar navlarini yer ustki qismini o'sib rivojlanishiga turli xil tuproq aralashmalarining ta'siri.

Navlar	Aralashmalar	Asosiy poya uzunligi, sm	Yon shoxlari soni, dona	Yon shoxlari uzunligi, sm	Un shudring bilan kasallanishi, %
Zargulobi	O'g'itsiz - nazorat	131	3,0	418	5,0
	N ₂₂₀ P ₁₅₀ K ₆₀ +Gidrogel-6 kg/ga	150	3,2	467	0
	N ₂₂₀ P ₁₅₀ K ₆₀ +Gidrogel-12 kg/ga	163	3,4	575	0
	N ₂₂₀ P ₁₅₀ K ₆₀ +Gidrogel-18 kg/ga	145	3,1	510	2,5
Oq novvot	O'g'itsiz - nazorat	142	3,5	551	2,5
	N ₂₂₀ P ₁₅₀ K ₆₀ +Gidrogel-6 kg/ga	165	3,7	668	0
	N ₂₂₀ P ₁₅₀ K ₆₀ +Gidrogel-12 kg/ga	171	3,7	739	0
	N ₂₂₀ P ₁₅₀ K ₆₀ +Gidrogel-18 kg/ga	160	3,6	611	5,0
Qari qiz	O'g'itsiz - nazorat	139	3,6	493	15,0
	N ₂₂₀ P ₁₅₀ K ₆₀ +Gidrogel-6 kg/ga	156	3,7	603	2,5
	N ₂₂₀ P ₁₅₀ K ₆₀ +Gidrogel-12 kg/ga	162	3,8	708	0
	N ₂₂₀ P ₁₅₀ K ₆₀ +Gidrogel-18 kg/ga	145	3,6	540	2,5

Biometrik o'lchov natijalariga ko'ra, qovunni barcha o'rtapishar navlari o'simliklarining asosiy poyasi uzunligi 131-171 sm ni tashkil etdi. Eng yuqori ko'rsatkich barcha navlarning gidrogelni gektariga 12 kg qo'llangan variantlarida bo'lib, u 163-171 sm ekanligi aniqlandi. Nazorat variantga nisbatan asosiy poyaning uzunligi 23-31 sm yuqori o'sganligi ma'lum bo'ldi. Gidrogelni 18 kg qo'llangan variantda esa bu ko'rsatkich past bo'ldi.

O'simliklarning yon shoxlari soni hisoblab chiqilganda, o'rtapishar Zargulobi navida 3,0-3,4 dona bo'lib, nisbatan yuqori ko'rsatkich 3,4 dona gidrogelni gektariga 12 kg qo'llangan variantlarida kuzatildi.

Oq novvot va Qari qiz navlarining ushbu variantlarida 3,7-3,8 dona yon shox hosil qilganligi aniqlandi. Nisbatan kam shoxlangan nazorat variantda kuzatildi.

Yon shoxlarning umumiy uzunligi bo'yicha xisbolash natijalariga ko'ra, Zargulobi navida 418-575 sm, Oq novvot navida 551-739 sm va Qari qiz navlarda esa 493-708 sm ni tashkil etgan.

O'rtapishar navlar ichida yon shoxlarning umumiy uzunligi bo'yicha nisbatan yuqori ko'rsatkich, ya'ni kuchli o'sgan variant gidrogelni gektariga 12 kg qo'llanganda Zargulobi navida 575 sm, Oq novvot navida 739 sm va Qari qiz navida esa 708 sm bo'ldi. Nazoratga nisbatan 157-217 sm ga yuqori o'sganligi aniqlandi.

Tajribada qovunni o'rtapishar navlari o'simligining yer ustki qismini kuchli o'sib rivojlanishiga gidrogel moddasini tuproqqa solib yetishtirish ayniqsa, gektariga 12 kg solingan variantida eng yuqori natijani, ya'ni nazoratga nisbatan asosiy poyani uzunligi 12 sm ga, yon shoxlar sonini 0,4 donaga, umumiy yon shoxlar uzunligini 157-217 sm ga yuqori ekanligini ko'rsatgan.

Qovunni Xorazm vohasida o'rtapishar navlarini yetishtirishda turli xildagi tuproq aralashmasini va mulchalashni usullarini ekinlar hosildorligiga ta'siri aniqlandi. Hosildorlikni aniqlashda har bir terim alohida torozida tortildi va mevalar tashqi sifat ko'rsatkichlariga qarab tovar va notovar hosil fraksiyalarga ajratildi.

Tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biri – hosildorlik ko'rsatkichiga ushbu moddalarning ta'siri taxlil qilinganda, mevalarning o'rtacha soni va vazni, hosildorlik hamda tovarbop hosil ulushi aniqlandi.

Qovun o'simlikdagi mevalarning o'rtacha soni va meva vazni bo'yicha Zargulobi navida variantlararo har bir o'simlikda 4-5 donadan meva hosil qilganligi ma'lum bo'ldi. Nisbatan yuqori ko'rsatkich gidrogelni gektariga 12 kg qo'llangan variantida 1 donaga ko'p, ya'ni 5 donani tashkil etgan. Oq novvot navida 5-7 dona meva hosil qilgan bo'lib, gidrogel preparatini gektariga 12 kg qo'llangan variantida nazorat variantga nisbatan 2 dona ko'p meva hosil qilganligi qayd etildi. Qari qiz navida ham 5-7 dona meva, ya'ni gidrogel gektariga 12 kg qo'llangan variantida nazorat variantga nisbatan 2 dona ko'p meva hosil qilganligi kuzatildi.

2-jadval Qovunni o'rtapishar navlarini hosildorlik ko'rsatkichlariga turli xil tuproq aralashmalarining ta'siri.

Navlar	Aralashmalar	Mevaning o'rtacha		Hosildorlik		
		soni, dona	vazni, kg	t/ga	nazoratga nisbatan, %	tovarbop hosil ulushi, %
Zargulobi	O'g'itsiz - nazorat	4	2,0	17,8	100	92
	N ₂₂₀ P ₁₅₀ K ₆₀ +Gidrogel-6 kg/ga	4	2,3	18,4	103	94
	N ₂₂₀ P ₁₅₀ K ₆₀ +Gidrogel-12 kg/ga	5	2,6	20,2	113	96
	N ₂₂₀ P ₁₅₀ K ₆₀ +Gidrogel-18 kg/ga	4	2,2	18,1	102	93
Oq novvot	O'g'itsiz - nazorat	5	1,3	17,2	100	91
	N ₂₂₀ P ₁₅₀ K ₆₀ +Gidrogel-6 kg/ga	6	2,0	19,6	114	95
	N ₂₂₀ P ₁₅₀ K ₆₀ +Gidrogel-12 kg/ga	7	2,1	20,8	121	97
	N ₂₂₀ P ₁₅₀ K ₆₀ +Gidrogel-18 kg/ga	6	1,8	18,9	110	96
Qari qiz	O'g'itsiz - nazorat	5	2,8	27,8	100	92
	N ₂₂₀ P ₁₅₀ K ₆₀ +Gidrogel-6 kg/ga	6	3,1	29,1	105	94
	N ₂₂₀ P ₁₅₀ K ₆₀ +Gidrogel-12 kg/ga	7	3,7	30,3	109	95
	N ₂₂₀ P ₁₅₀ K ₆₀ +Gidrogel-18 kg/ga	6	3,0	28,2	101	94

Mevaning vazni bo'yicha Zargulobi navida variantlararo mevalarning o'rtacha vazni 2,0-2,6 kg oraliqda bo'lgan, Oq novvot navi esa nisbatan kichikroq vaznda, ya'ni 1,3-2,1 kg, Qari qiz navida

mevalarning o'rtacha vazni yirikroq, ya'ni 2,8-3,7 kg ni tashkil etgan. Tajribada har qaysi navlarda ham mevaning o'rtacha vazni eng yuqori ko'rsatkichni gidrogelni gektariga 12 kg qo'llangan variantlarida kuzatildi va u Zargulobi navida 2,6 kg ni, Oq novvot navida 2,1 kg, Qari qiz navida 3,7 kg ni tashkil etdi.

Mineral o'g'itlar bilan birgalikda gidrogelni gektariga 18 kg qo'llangan variantlarda ham barcha navlarda o'simlikdagi meva soni va vazni bo'yicha nazorat variantga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

Tovarbob hosildorlik qovunni o'rtapishar Zargulobi navini barcha variantlarida 17,8-20,2 t/ga ni tashkil etgan bo'lib, bunda barcha variantlar nazorat variantdan yuqori hosil to'plaganligi aniqlandi. Ayniqsa gidrogelni gektariga 12 kg qo'llangan variantida (20,2 t/ga) 13 foizga yuqori hosil berganligi ma'lum bo'ldi. Gidrogelni 6 kg qo'llangan va gidrogelni gektariga 18 kg qo'llangan variantlarida nazoratga nisbatan 2-3 foizga yuqori hosil to'plagan.

Oq novvot navida bu ko'rsatkich variantlararo 17,2-20,8 t/ga ni tashkil etib, barcha variantlar nazoratga nisbatan yuqori hosil bergan. Nazorat variantga nisbatan eng yuqori hosil gidrogelni gektariga 12 kg qo'llangan variantida (20,8 t/ga) 21 foizga yuqori berganini ko'rishimiz mumkin. Gidrogelni 6 kg qo'llangan va gidrogelni gektariga 18 kg qo'llangan variantlarida nazoratga nisbatan 10-14 foizga yuqori hosil to'plagan.

Qari qiz navida tovarbob hosil variantlararo 27,8-30,3 t/ga ni tashkil etib, ushbu navda ham barcha variantlar nazoratga nisbatan yuqori hosil bergan. Eng yuqori tovarbob hosil gidrogelni gektariga 12 kg qo'llangan variantida (30,3 t/ga) 9 foizga yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Gidrogelni 6 kg qo'llangan va gidrogelni gektariga 18 kg qo'llangan variantlarida nazoratga nisbatan 1-5 foizga yuqori hosil to'plaganligi ma'lum bo'ldi.

Tajribada qovunni o'rtapishar navlarini yetishtirishda turli xil tuproq aralashmalari va me'yorlarini hosildorlik ko'rsatkichiga ta'siri aniqlandi. Bunda eng yaxshi natija gidrogelni gektariga 12 kg qo'llangan variantlarida Zargulobi navida (20,2 t/ga) 13 foizga, Oq novvot navida (20,8 t/ga) 21 foizga va Qari qiz navida (30,3 t/ga) 9 foizga nazorat variantdan yuqori tovarbob hosil to'plagan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda gidrogelni gektariga 12 kg qo'llangan variantida qovun urug'larini nazoratga nisbatan erta unib chiqishi (2-3 kun), otalik va onalik gullarni erta gullashi (4-5 kun) va mevalarning erta pishib (9-10 kun) yetilishi aniqlandi. Tajribada qovunni o'rtapishar navlari o'simligining yer ustki qismini kuchli o'sib rivojlanishiga gidrogel moddasini tuproqqa solib yetishtirish ayniqsa, gektariga 12 kg solingan variantida eng yuqori natijani, ya'ni nazoratga nisbatan asosiy poyani uzunligi 12 sm ga, yon shoxlar sonini 0,4 donaga, umumiy yon shoxlar uzunligini 157-217 sm ga yuqori ekanligi isbotlandi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. O'zPITI. Toshkent. 2007. – B. 147.
2. Dospexov B.A. Metodika polevogo opyta. – Moskva: Agropromizdat, 1985. – S. 223-290.
3. Ramatov, B. Z., Matyaqubov, M. M., & Bekchanov, X. Y. (2023). Xorazm viloyati sharoitida qovoq urug'ini unuvchanligini o'rganish. *Innovative developments and research in education*, 2(19), 7-9.

4. Шакиров, А., Садуллаев, С., Матякубов, М. (2023). Хоразм вилояти шароитида эртанги муддатда етиштириш учун қовоқ нав намуналарини танлаш. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси, 107(10), 178-181.
5. Раматов, Б. З., & Матякубов, М. М. (2022). Агротехника выращивания нового перспективного сорта тыквы в хорезмской области. *Scientific Impulse*, 1(4), 1243-1245.
6. Shokirov, A. J., Raximov, A., Matyakubov, M. M. (2022). Xorazm viloyati o'tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida qovoq navlari urug'ining unib chiqish va chinbarg hosil qilish muddatlari. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси, 1(10), 178.
7. Xalimova, M., Sadullaev, S. M., Borasulov, A., Matyokubov, M. M., Boltayev, M. A. (2021). Xorazm qovunlarining istiqbolli nav namunalari. Табиий фанлар ривожланишининг замонавий тамойиллари, 1(1), 185.
8. Borasulov, A., Sadullaev, S. M., Xalimova, M. O., Boltayev, M. A., Matyokubov, M. M. (2021). Qovunning saxovat navini urug'unuvchanligi. Табиий фанлар ривожланишининг замонавий тамойиллари, 1(1), 182.
9. Matyaqubov, M., Raximov, A., Rajabov, A. (2021). Mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga moslashtirilgan tropik ekin –indigoferaning biologik xususiyatlari. Biologiya ekologiya va qishloq xo'jaligi muammolarining ilmiy hamda innovatsion yechimlari, 1(1), 173.
10. Iskandarov, Z., Abdieva, G., Matyakubov, M. (2020). Фойдали моделларга патент ва талабномаларнинг тизимли ва рақамли кўрсаткичлари. Фойдали моделлар Расмий ахборотнома, 9(2), 82.
11. Iskandarov, Z., Abdieva, G., Matyakubov, M. (2019). Experimental investigation of the thermophysical characteristics of the melatic meat. Electronic journal of actual problems of modern science, 2(8), 1.
12. <http://www.sgau.ru/files/pages/14691/14327973036.pdf>,
13. <https://www.twirpx.com/file/967750/>